

## «ASAKA» BANKIGA 20 YIL: YUKSAK ISHONCH VA BARQAROR RIVOJLANISH

Davlatimiz Rahbari tashabbusi bilan 1995 yil 7 noyabrda tashkil etilgan «Asaka» Aksiyadorlik tijorat banki tashkil etilganiga 20 yil to'ldi. Mamlakatimizning moliyaviy xizmatlar bozorida o'z faoliyatining boshidanoq yetakchilik mavqeyiga ega bo'lgan bank, yetakchilik mavqeyini barqaror saqlab kelmoqda. Bank, mamlakat iqtisodiy hayotining barcha ishtirokchilari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga barcha bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bank, har bir mijozning individual talabidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborini ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda. Bunda «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» degan eng asosiy tamoyil dasturi amal bo'lmoqda.



Bank muntazam ravishda o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib bormoqda. Hozirgi kunda bankning hududiy tarmoq tizimi respublikamizning butun hududini qamrab olgan bo'lib, 26 filial, 87 mini bank, 421 jamg'arma, maxsus va ko'chma kassalari orqali aholi va

xo'jalik yurituvchi subyektlarga barcha turdagi yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Xozirgi kunda Bank mijozlari soni 1,6 mln. nafardan oshdi. Bank mijozlari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari korxonalar, tashkilot va birlashmalaridan iboratdir. Jumladan, Bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, yengil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, transport, qurilish va boshqa tarmoqlar korxonalar va tashkilotlariga, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.


Bank jahon va ichki bozor konyukturasining o'zgarishlariga hozirjavob bo'lgan holda, O'zbekistondagi va xorijdagi banklar bilan vakillik munosabatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Vakillik munosabatlarini o'rnatishda «Asaka» bank nafaqat o'z manfaatlarini, balki birinchi navbatda mijozlarning manfaatlarini himoya qilishga ahamiyat beradi. Ular uchun qulay sharoitlar bankning 20 yillik faoliyati davomida samaradorlik, to'lovlarning kam xarajatligi, qat'iy ijro muddati va vositachilik xarajatlarining minimal miqdorini o'rnatilishi hisobiga yaratildi.

Hamkorlik yo'nalishlari ko'lamini kengaytirgan va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilagan holda, Bank o'z vakillik tarmog'ini muntazam ravishda kengaytirib bormoqda. Hozirgi kunda «Asaka» bank jahonning 350 dan ortiq yetakchi banklari


bilan vakillik munosabatlariga ega bo'ldi. Eng yirik xorijiy banklardagi vakillik hisob-varaqlari tarmog'i orqali «Asaka» bank jahonning asosiy moliyaviy markazlarida o'zining ishtirokini ta'minlamoqda.

Doimiy ravishda «Asaka» bank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda xorijiy xamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida faol ishlar olib borilmoqda. Bank faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari shundan dalolat beradi. Jumladan, jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «Moody's» va «Fitch Ratings» tomonidan «Asaka» bank faoliyatiga qatorasiga bir necha yillardan beri yuqori reyting baholari berilmoqda. Bank faoliyati «Barqaror» deb tan olinmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida banklarning reyting ko'rsatkichlari darajasi pasayotgan bir paytda xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston bank tizimiga yuqori reyting baholarini berilishi, muhtaram Prezidentimizning bank tizimiga bo'lgan e'tibori evaziga, bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bank tizimining barqarorligidan dalolat beradi.

Jahonning nufuzli nashriyotlaridan bo'lgan «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» tomonidan «Asaka» bank bir necha marotaba «O'zbekistonda yilning eng yaxshi banki» deb tan olindi.




«Asaka» bank jami aktivlari 2015 yil 1 oktyabr holatiga 6 653,4 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bank jami kapitali 871,2 mlrd.so'mga yetdi.



Respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 3 016,5 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yimlarning 2 555,8 mlrd. so'm miqdoridagi qismi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi, shundan 2 154,9 mlrd. so'm miqdoridagi qismi investitsion kreditlardir.

Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 751,6 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda ham «Asaka» bankning hissasi oshib bormoqda. Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yil to'qqiz oyi davomida 967,8 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bu mablag'lar respublikamizda ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, viloyat, shahar va qishloqlar iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga xizmat qilishi va qolaversa, mamlakat kuch-qudratini oshirishga munosib ulush bo'lib qo'shilish barobarida, ushbu sarmoyalar evaziga qo'shimcha ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlar, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandilar.



Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlariga asosan 409,7 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Natijada, mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish jabhasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayollarga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadlariga 81,5 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Kollej bitiruvchilarini tadbirkorlikka jalb qilish va shu orqali ularni ish bilan ta'minlash bo'yicha ham bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yilda kollej bitiruvchilariga tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun 9,1 mlrd.so'mga yaqin miqdorda imtiyozli shartlarda kreditlar ajratildi.

Bank tomonidan 2015 yil davomida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga 1 trln. 168 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining yanada o'sishi va mustahkamlanishi omillaridan biri - bu iqtisodiy nochor va bankrot deb e'lon qilingan korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko'mak berish va shu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabdagi "Iqtisodiyot real

sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bu sohada asosiy dasturulamal bo'lmoqda. «Asaka» bank tomonidan bu sohada muhim yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 61,7 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Natijada 4 109 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 439,9 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 58,4 mln.AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muxim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini omonatlarga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 40 turdan ortiq milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida

rasmiylashtirilmoqda. Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2015 yil 1 oktyabr holatiga 571,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Omonatchilar soni 1 564,0 ming nafardan oshdi. Bu esa aholining «Asaka» bankiga bo'lgan ishonchini oshganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2015 yil 1 oktyabr holatiga 1 577,7 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi. 10 146 ta terminal, 46 ta infokiosk va 27 ta bankomat o'rnatildi. 8837 ta korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz xisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2015 yil 1 oktyabr holatiga savdo aylanmalari miqdori 1,4 trln. so'mni tashkil qildi.

Muhtasar qilib aytganda, «Asaka» bank jamoasi 20 yillik faoliyati davomida mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlab, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish orqali respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va aholi turmushini yanada farovon etish bo'yicha faol ishlar olib bordi va bu faoliyatni kelgusida ham davom ettirishni maqsad qilgan.